

REKTOR TALABALARNING YASHASH TARZI BILAN TANISHDI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev Talabalar turar joyida bo'lib, u yerda yaratilgan sharoitlar, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatini yana bir bor ko'zdan kechirdi.



Dastlab, N.Sayfullayev talabalar turar joyida tashkil etilgan tikuv xonasiga kirar ekan, darsdan bo'sh vaqtlarida qizlarning tikuvchilik hunarini o'rganayotganliklarini guvohi bo'ldi. Zamonaviy tikuv mashinalari, kerakli asbob-uskunalar va turli matolar bilan ta'minlangan ushbu joyda qizlar o'z ijodiy g'oyalarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'layotganliklarini ko'rish mumkin.



Rektor tibbiyot xonasini ko'zdan kechirar ekan, u yerda birinchi yordam uchun zarur dori-darmonlar, tibbiy jixozlarning shaylik holatini o'rgandi. So'ng oshxonadagi sharoitlar bilan ham tanishdi. Talaba-qizlar bu yerda barcha sharoitlar mavjud ekanligini alohida ta'kidlab o'tishdi.



N.Sayfullayev tozalik va xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish, ayniqsa, gaz isitish uskunalari va elektr jihozlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish yuzasidan muhim tavsiyalarni berdi. Talabalarning takliflari va muammolarini tingladi.



Yoshlar bilan muloqot chog'ida Nodirbek Sayfullayev bugun yurtimizda yoshlarga iste'dodlarini namoyon qilishlari, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilganini, xususan, institutda ham talabalarning sifatli ta'lim olishlari va kelajakda yetuk ijodkor bo'lishlari uchun barcha sharoitlar mavjud ekanligini alohida qayd etdi.



Talabalardan yagona talab, sifatli ta'lim olish hamda Muhtaram Prezidentimizning ishonchini oqlagan holda Yangi O'zbekiston san'atini yanada yuksaltira oladigan yetuk ijodkor bo'lish kerakligini ta'kidladi.

O'z o'rnida talabalar ham yashash sharoitlari hamda o'qish jarayonlarida yaratilgan imkoniyatlar uchun avvalo Hurmatli Yurtboshimizga qolaversa, institut rahbariyatiga o'z minnatdorliklarini bildirdi.

O'zbekiston davlat san'at va

madaniyat institutiga Qozog'iston milliy san'at universiteti (Kulyash Bayseitova nomidagi) rektori, professor Galim Ahmedyarov tashrif buyurdi

Mehmonni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev samimiy kutib oldi.

□ N.Sayfullayev mehmonga tashrif uchun o'z minnatdorligini bildirar ekan, institutda yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonlari xususida gapirib o'tdi. Jumladan dual ta'lim tizimi, masofaviy ta'lim shakllari, shuningdek, bir qator yetakchi davlat san'at oliygohlari bilan olib borilayotgan ilmiy-ijodiy hamkorlik loyihalari haqida batafsil ma'lumot berdi.



□ Uchrashuv chog'ida ikki oliy ta'lim muassasasi rahbarlari o'zaro hamkorlikning bugungi holati va istiqbolli yo'nalishlari haqida fikr almashdilar.



□ Suhbat yakunida tomonlar o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashni ko‘zda tutuvchi Hamkorlik memorandumini imzoladilar. Shuningdek, Galim Ahmedyarovga esdalik sovg‘asi topshirildi.



□ Tashrifning amaliy qismi davomida G.Ahmedyarov institutda yaratilgan sharoitlar, o‘quv jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

□ Jumladan “Dramatik teatr va kino aktyorligi san’ati” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich 302-guruh talabalarining “Kuyov” diplom oldi spektaklidan parcha, (Kurs badiiy rahbari v.b. dotsent Mohigul Hamroyeva) “Dramatik teatr va kino aktyorligi san’ati” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalarining filmlarga ovoz berish jarayonlari (Kurs badiiy rahbari professor Minavvara Abdullayeva),
2-bosqich “Dramatik teatr rejissyorligi” talabalarining “Urush odamlari” spektaklidan parcha kuzatildi. (kurs badiiy rahbari, dotsent Shoira Hamidova)



□ G.Ahmedyarov har bir jarayonlarni e'tibor bilan kuzatar ekan, avvalo kurs badiiy rahbarlariga va talabalarning ijro mahoratiga yuqori baho berdi. Shuningdek, ikki oliygoh o'rtasidagi ijodiy hamkorlik san'at sohasi rivojiga xizmat qilishini ta'kidladi.






0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti va Italiyaning Roma Tre universiteti o‘rtasida xalqaro onlayn master-klass tashkil etildi

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti anjumanlar zalida Italiyaning Roma Tre universiteti prorektori, professor Anna Liza Totta, universitet professori Lara Konte, hamda MAXXI muzeyining hujjatlarni arxivlashtirish bo‘limi boshlig‘i Julia Pedache ishtirokida “Muzeyshunoslik: sotsiologik va san‘at tarixi yondashuvlari o‘rtasida” mavzusida xalqaro onlayn master-klass tashkil etildi.



Mazkur ilmiy-mahorat darsi madaniyat, san'at, muzeyshunoslik va sotsiologiya yo'nalishlari kesishmasida o'zaro tajriba almashish, shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida o'tkazildi.

Tadbirda institutning "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasini professor-o'qituvchilari faol ishtirok etishdi. Ular o'zlarining ilmiy izlanishlari asosida tayyorlangan ma'ruzalar bilan chiqish qilib, mavzu yuzasidan dolzarb fikr-mulohazalarini bildirishdi.



Xususan, tarix fanlari doktori, professor Munisa Muxammedova “O‘zbekistonda muzey arxitekturasi va muzey dizayni rivojlanishi (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida)” mavzusida ma’ruza o‘qib, mamlakatimizdagi zamonaviy muzeylarning shakllanishi, ularning me’moriy yechimlari hamda ekspozitsiya tizimi rivojlanish bosqichlari haqida batafsil ma’lumot berdi.

Shuningdek, professor Manzura Yo‘ldosheva “Madaniyat vazirligi tizimidagi muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish” mavzusidagi chiqishida O‘zbekiston muzeylarining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv tizimi, hamda ularni samarali faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan menejment mexanizmlari haqida so‘z yuritdi.



Ushbu qo'shma onlayn mahorat darslarida kafedra mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sayfullo Ikramov, sotsiologiya fanlari doktori, professor Abdusalom Umarov, kafedra dotsentlari Xafiza Abdullayeva va Rahima Yusupova, shuningdek, "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistrleri hamda "Muzeyshunoslik" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari ham faol qatnashdilar. Ular mahorat darsi davomida o'z fikr va takliflarini bildirib, xalqaro tajriba almashinuvida ishtirok etishdi.

Master-klass yakunida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Roma Tre universiteti vakillari kelgusida muzeyshunoslik, menejment va turizm yo'nalishlarida qo'shma mahorat darslari, seminar va ilmiy loyihalarni tashkil etishga kelishib oldilar.

Institut vakillari o'z navbatida Italiyaga tashrif buyurib, u yerdagi tarixiy va zamonaviy muzeylar faoliyati bilan yaqindan

tanishish istagini bildirishdi. Shu bilan birga, Italiya universiteti vakillarini ham O'zbekistonga tashrif buyurishga taklif etishdi.



Mazkur mahorat darsi O'zbekiston zamonaviy muzeylarida muzey arxitekturasi va ekspozitsiya dizaynining vazifalari hamda o'rnini chuqur tahlil etishga qaratilgan bo'lib, mamlakat muzey amaliyotidan olingan aniq misollar asosida quyidagi jihatlar atroflicha o'rganildi:

- tarixiy binolarni muzey maqsadlariga moslashtirish va

ekspozitsiyalarni tashkil etish masalalari;

- maxsus qurilgan muzey binolari tarixining shakllanishi va ularning me'moriy yechimlari;
- zamonaviy muzey inshootlarining arxitektura xususiyatlari va ekspozitsiya sharoitlarini tahlil qilish;
- multimedia texnologiyalaridan foydalanish hamda ko'chma (mobil) ko'rgazmalar faoliyatini rivojlantirish tajribalari.

Tadbir so'ngida ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash, muzeyshunoslik sohasida qo'shma ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha kelishuvga erishildi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bitiruvchi yoshlarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish bilan ta'minlash, ularni amaliy faoliyatga keng jalb etish hamda ta'lim jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish yuzasidan

uchrashuv bo'lib o'tdi

Xabaringiz bor, Hurmatli Yurtboshimiz rahbarligida 2025-yil 8-avgust kuni o'tkazilgan oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan kengaytirilgan yig'ilishda bir qator vazifalar belgilangan.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi boshlig'i Marhabo Sattarova ishtirokida bo'lib o'tgan uchrashuv ham ayni vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratildi.

Shuningdek, mazkur uchrashuvda viloyatdagi barcha madaniyat muassasalari, tegishli ta'lim tashkilotlari rahbarlari, institut professor-o'qituvchilari hamda institutni 2025/2026 o'quv yilida tamomlayotgan Andijonlik talabalar ham ishtirok etdilar.



Yig'ilishni institut O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sobir Madiyev olib borar ekan, bitiruvchi yoshlarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish bilan ta'minlash, ularni amaliy faoliyatga keng jalb etish hamda ta'lim jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.



Yig'ilish davomida hududiy madaniyat va san'at muassasalari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, bitiruvchi talabalar uchun amaliy mashg'ulot va stajirovkalarni samarali tashkil etish, nafaqat teatr san'ati sohasida balki viloyat Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi teatrlar, kutubxonalar, muzeylar, bolalar musiqa san'at maktablari hamda madaniyat markazlarida ular uchun ish o'rinlari yaratish borasida tashabbuslar ilgari surdi.



Uchrashuv chog'ida ta'kidlandiki, bugungi kunda mamlakatimizda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshqa sohalar qatori ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning bosh maqsadi yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni mehnat bozorida munosib o'rin egallashiga ko'maklashishdan iborat.



Boshqarma boshlig'i M.Sattarova bitiruvchi talabalarni kelgusida o'z ish o'rinlarini topish va ularga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha o'z takliflarini berdi.





Uchrashuv yakunida S.Madiyev bu kabi uchrashuvlar boshqa viloyatlar Madaniyat boshqarmalari bilan ham keng tarzda o'tkazilishi lozimligini aytib, kelgusida mamlakatimiz san'at va madaniyat sohasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yoshlar bandligini ta'minlash hamda ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish faqat hamkorlikda olib borilgan ishlar orqali o'z samarasini berishini ta'kidladi.

**0'zbekiston davlat san'at va
madaniyat institutida
"Ma'rifat ulashib" loyihasi**

doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi

Ma'lumki, bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularni adabiyot va mutolaaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish yo'lida amalga oshirilayotgan "Ma'rifat ulashib" loyihasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu loyiha yoshlarning tafakkurini kengaytirish, ularni o'qish va o'rganishga da'vat etishda, shuningdek, milliy g'oya va qadriyatlarimizni chuqur anglashida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tobora an'anaga aylanib borayotgan mazkur loyiha doirasida bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida navbatdagi ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda talaba-yoshlarni adabiyot, ma'rifat va so'z san'atiga oshno etish, ularda kitob o'qishga bo'lgan mehrni kuchaytirish maqsad qilingan.

Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi, ssenarist, telejurnalist **Nazar Eshonqulov**, sharqshunos, filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Abdumajid Azimov**, hamda "Shuhrat" medali, "Oltin qalam" milliy mukofoti sohibasi, yozuvchi **Xosiyat Rustamov**alar taklif etildi.

Dastlab, Institut O'quv teatrida talaba-yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Institut rektori, professor **Nodirbek Sayfullayev** mehmonlarni samimiy kutib olib, institut jamoasi nomidan ularga minnatdorlik bildirdi. U o'z so'zida bu kabi ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularning adabiyot, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, shuningdek, o'qish va fikrlash madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.



N.Sayfullayev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ijodiy oliy ta'lim muassasasi sifatida adabiyot bilan chambarchas bog'liqligini qayd etdi. Bu yerda faqatgina san'at va madaniyat sohasi vakillari emas, balki yozuvchi va shoirlar ham faoliyat yuritishi, bu esa adabiy muhitni yanada boyitishini ta'kidladi. Shu munosabat bilan u bunday hamkorlik tadbirlari kelgusida ham izchil davom ettirilishini ma'lum qildi.



Shundan so'ng institut rahbari mehmonlarga minnatdorlik sifatida tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari taqdim etdi.

Uchrashuv ijodiy, samimiy ruhda davom etdi. Mehmonlar o'z chiqishlarida adabiyotning inson ruhiy dunyosidagi o'rni, so'zning qudrati va kuchi, shuningdek, bugungi efirga uzatilayotgan seriallar, ularning milliy mentalitet va ma'naviyatga ta'siri, yosh avlod ongiga singdirayotgan g'oyalari haqida fikr almashishdi.



Ijodkorlar soʻzning masʼuliyatini, yozuvchi va jurnalistning xalq, millat, va ayniqsa, yoshlar oldidagi vazifasini alohida taʼkidlashdi. Milliy qadriyatlarimizni, ona tilimizni, madaniyat va oʻzligimizni saqlab qolishda adabiyotning oʻrni beqiyos ekanini qayd etishdi. Yoshlarning qalbida adabiyotga, Vatanga va millatga mehr uygʻotish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri ekanligi aytib oʻtildi.



Har bir ijodkor uchrashuv davomida millatni ulyg'lovchi, Vatanni madh etuvchi she'rlaridan namuna o'qib berdi. Shu onlarda zaldagi talabalar va ustozlar ko'zlarida ilhom va faxr tuyg'usi namoyon bo'ldi.

Tadbir davomida institut o'qituvchilari va talaba-yoshlar ham o'z ijodiy namunalarini taqdim etdilar. Ayniqsa, institut professori, taniqli shoira Sayyora Toychiyevaning "Vatan manzumasi" nomli she'ri yig'ilganlarda chuqur ta'surot qoldirdi. Ushbu she'r yurtimizga bo'lgan muhabbat, sadoqat va gurur tuyg'usini yanada yorqin ifodaladi.



Talaba-yoshlarning adabiyot, ijod va mutoalaga oid savollariga mehmonlar atroflicha va samimiy tarzda javob berishdi. Ular har bir yosh qalbda ijod urug'ini sepish insonning eng ezgu amallaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tishdi.



Shundan so'ng mehmonlar institut Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Shohbek Ergashev hamrohligida institut faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Ular talaba-yoshlarning ijodiy ishlari, o'quv jarayonlari va zamonaviy sharoitlar bilan qiziqish bilan tanishdilar.



Xususan, Xalq ijodiyoti fakulteti "Ashula va raqs" ta'lim

yoʻnalishi talabalari tomonidan ijro etilgan “Fargʻonacha jonon” va “Nasri uzzol” kuy-qoʻshiqlari, shuningdek, “Dramatik teatr va kino aktyorligi” taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich talabalari tomonidan namoyish etilgan mahorat darslari mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Bundan tashqari ular talabalar turar joyi, oʻquv va ijodiy auditoriyalar, zamonaviy texnik jihozlar bilan tanishib, institutdagi imkoniyatlardan mamnun boʻlishdi.



Eslatib oʻtamiz, kunning birinchi yarmida ijodkorlar Nazar Eshonqulov, sharqshunos Abdumajid Azimov va Xosiyat Rustamovalar Zangiota tumanidagi 36-, 37- va 2-umumtaʼlim maktablarida ham maʼnaviy uchrashuvlar oʻtkazishdi. Ular oʻquvchilar bilan samimiy muloqot qilib, ularni kitobxonlikka, bilim olishga, mustaqil fikrlashga daʼvat etdilar. Ushbu uchrashuvlarda yozuvchilar oʻz ijodiy tajribalari, ilk ilhom manbalari va kitobning inson hayotidagi beqiyos ahamiyati haqida soʻz yuritishdi. Ular bolalarni har kuni kamida bir necha sahifa kitob oʻqishga, fikr yuritish va savol berishdan qoʻrqmaslikka chorlashdi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev «Notiqlik san'ati» bo'yicha malaka oshirayotgan tinglovchilarning dars jarayonlari bilan tanishdi

Ayni paytda Madaniyat vazirining tegishli buyrug'iga asosan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida vazirlik tizimidagi davlat teatrlari va teatr-studiyalarida samarali faoliyat yuritib kelayotgan ijodiy xodimlar «Notiqlik san'ati» bo'yicha maxsus o'quv kurslarida malaka oshirmoqdalar.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ushbu qisqa muddatli malaka oshirish o'quv kursi tinglovchilarining dars jarayonlari bilan bevosita tanishdi.



Dastlab, N.Sayfullayev bugungi kunda Davlatimiz Rahbari tomonidan barcha sohalar xususan, san'at va madaniyat sohasiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik borasida o'z fikrini bayon etdi.

“Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-399-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda, mamlakatimizda teatr san'atini yanada rivojlantirish, teatrlar faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada ijodiy hamkorlik va erkinlikni ta'minlash, spektakllarning badiiy saviyasini oshirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, budget mablag'lari va boshqa resurslardan samarali foydalanish, sohaga jahon teatr san'atining ilg'or tajribalari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish vazifalarini amalga oshirish asosiy maqsad etib belgilab olingan”. – dedi rektor.

Shuningdek, bugungi kunda institutda yosh ijodkorlarga yaratilgan sharoitlar, xususan, qabul jarayonlarining adolatli va shaffof tarzda tashkil etish uchun qilingan ishlarga ham alohida to'xtalib o'tdi hamda bulardan ko'zlangan yagona maqsad kelgusida san'at va madaniyat sohasiga har tomonlama yetuk kadrlarni yetkazib berish ekanligini qayd etildi.



Bundan tashqari, Respublika teatrlariga kadr yetkazib beruvchi yetakchi oliy ta'lim muassasasi sifatida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti barcha teatrlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.



Shundan so'ng uchrashuv ochiq muloqot shaklida davom ettirildi.

Muloqot davomida tinglovchilar o'zlari faoliyat yuritayotgan teatrlarda sahna nutqi va sahna harakati bo'yicha yuzaga kelayotgan masalalarni bildirishdi. Bu boradagi taklif va

tashabbuslarini aytishdi.

O'z o'rnida N.Sayfullayev tashabbuslarni ma'qullab, bu masalalar nafaqat o'quv kursi davomida balki, teatrlarda sahnalashtirilayotgan spektakl jarayonlarida bevosita institut "Sahna nutqi" kafedrasida professor o'qituvchilarning ishtirokini yo'lga qo'yish taklifini bildirib o'tdi.

Bu esa o'z o'rnida rol ijro etayotgan aktyorlarning ovoz imkoniyatlari va sahna nutqini yanada kengaytirishda samarali bo'lishi ta'kidlandi.



Shuningdek, muloqot chog'ida Notiqlik san'ati kurslarini qamrovini yanada oshirish, ularni muntazam tashkil etish borasida ham takliflar bildirildi.

Tinglovchilar bu kurslarda ko'plab yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'layotganlarini, bu bilimlar kelgusi ijodiy faoliyatlarida katta ahamiyat kasb etishini aytib o'tdilar.



Mazkur dars matn ustuda ishlash moduli bo'yicha bo'lib, "Sahna nutqi" kafedrası professor v.b. o'qituvchilari Ramz Qodirov hamda Shokir Yusupovlar tomonidan olib borildi. Nodirbek Sayfullayev ushbu jarayonni bevosita kuzatib bordi.



0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida navbatdagi yig‘ilish bo‘lib o‘tdi

Yig‘ilishda prorektorlar, rektor maslahatchisi fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlari hamda kafedra mudirlari ishtirok etdilar.



Dastlab, N. Sayfullayev 11-noyabr – O‘zbekiston Kasaba uyushmalari xodimlari kuni munosabati bilan so‘z yuritib, kasaba uyushmalarining jamiytdagi o‘rni va ahamiyati xususida o‘z fikr va mulohazalarini bildirdi.

U o‘z so‘zida Hurmatli Prezidentimizning 2025-yil 17-oktabr kuni O‘zbekiston Kasaba uyushmalari faollari bilan uchrashganini eslab o‘tdi.

Shuningdek, bu uchrashuv davomida Davlatimiz rahbari kasaba uyushmalari harakati a‘zolariga o‘zining yuksak hurmati va ezgu tilaklarini bildirganini ta’kidladi.

N.Sayfullayev institut Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi Baxtiyor Yuldashevni ushbu sana munosabati bilan institut jamoasi nomidan qizg‘in tabriklab, tashakkurnoma topshirdi. Uning kelgusi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.




Taqdirlash marosimida O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari respublika kengashining bosh mutaxassisi Umid Xalikov hamda O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent shahar birlashgan qo'mitasi raisi Muhayyo Xolboyevalar ham ishtirok etib, Baxtiyor Yuldashevga "O'zbekiston Kasaba uyushmalarining 120 yilligi" ko'krak nishonini topshirishdi.



Shundan so'ng yig'ilish kun tartibidagi masalalarga o'tildi.

Kun tartibida quyidagi masalalar atroflicha muhokama qilindi:



– Institutda yoshlar bilan ishlash hamda ma'naviy-ma'rifiy

sohada amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida (TTJ va ijarada yashovchi talabalar bilan ishlash);



Fakultetlar kesimida talabalarning haftalik (3-8 noyabr xolati) davomati,
2025/2026-o'quv yili 5-kurs sirtqi ta'lim shakli talabalarining Yakuniy nazorat natijalari va 4-kurs sirtqi talabalarni o'quv mashg'ulotlarga jalb qilish, 2025 yil uchun rejalashtirilgan maqsadli investisiyalarni amalga oshirilishi, Xalqaro hamkorlik bo'yicha universitetlar bilan imzolangan memorandumlar, tuzilgan (O'zbekiston-Xitoy, O'zbekiston-Italiya, O'zbekiston-Turkiya, O'zbekiston-Ozarbayjon) "Yo'l xarita"larida belgilangan vazifalar ijrosining bajarilishi;



Kafedralarning reyting indikatorlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar;
Tijoratlash tirish bo'yicha (kafedralar kesimida) amalga oshirilgan va rejalashtirilgan ishlar;



2025/2026-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati;
Ijro intizomi holati masalalari ko'rib chiqildi.

□□Muhokamalar yakunida
har bir masala yuzasidan mas'ul shaxslarga aniq topshiriqlar
berildi.

Rektor har bir yo'nalishda belgilangan vazifalarning o'z
vaqtida va sifatli bajarilishini qat'iy nazoratga olish
zarurligini ta'kidladi.

**Xabaringiz bor, ayni paytda
O'zbekiston davlat san'at va**

**madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek
Sayfullayev hamda ilmiy
ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor Baxtiyor
Yoqubov Samarqand shahrida
bo'lib o'tayotgan YUNESKO
Bosh konferensiyasi 43-
sessiyasida ishtirok etish
maqsadida xizmat safarida
bo'lib turishibdi. Xizmat
safari davomida bugun
Samarqand viloyati Madaniyat
boshqarmasi boshlig'i Botir
Tugalov bilan uchrashuv
o'tkazildi.**

Xabaringiz bor, ayni paytda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev hamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yoqubov Samarqand shahrida bo'lib o'tayotgan YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasida ishtirok etish maqsadida xizmat safarida bo'lib turishibdi.

Xizmat safari davomida bugun ular Samarqand viloyati musiqali drama teatriga tashrif buyurishib, teatrning bir qator ijodkorlari bilan uchrashdilar.

Shundan so'ng tashrifning asosiy maqsadi sifatida viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig'i Botir Tugalov bilan uchrashuv o'tkazildi.



Ma'lumki, Yurtboshimiz rahbarligida 2025-yil 8-avgust kuni o'tkazilgan oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan kengaytirilgan yig'ilishda bir qator vazifalar belgilangan bo'lib, mazkur uchrashuv ayni vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratildi.



Muloqot chog'ida N.Sayfullayev institut faoliyati, ta'lim jarayonlari, shuningdek, dual ta'limni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar haqida so'z yuritdi. U bitiruvchi yoshlarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish bilan ta'minlash, ularni amaliy faoliyatga keng jalb etish hamda ta'lim

jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidladi.



–Bugungi kunda mamlakatimizda Hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan boshqa sohalar qatori ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning bosh maqsadi yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni mehnat bozorida munosib o'rin egallashiga ko'maklashishdan iborat", – dedi u o'z so'zida.



Muzokaralar davomida hududiy madaniyat va san'at muassasalari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, bitiruvchi talabalar uchun amaliy mashg'ulot va stajirovkalarni samarali tashkil etish, nafaqat teatr san'ati sohasida balki viloyat Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi teatrlar, kutubxonalar muzeylar, bolalar musiqa san'at maktablari hamda madaniyat markazlarida ular uchun ish o'rinlari yaratish borasida tashabbuslar ilgari

surdi.



Shuningdek, viloyatda faoliyat yuritayotgan 4 ta teatr tarixi, uning tamal toshini qo`ygan san`at ustalari va ijodkorlar to`g`risida monografiyalar qilish, kelajakda teatr muzeyini tashkil etish bo`yicha ham muzokaralar olib borildi.

Uchrashuv davomida tomonlar o`zaro hamkorlikda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan bir qator loyihalar yuzasidan fikr almashdilar.

Uchrashuv yakunida Nodirbek Sayfullayev Botir Tugalov orqali viloyatdagi barcha madaniyat muassasalarini yaqin hamkorlikka chorlab, kelgusida mamlakatimiz san`at va madaniyat sohasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yoshlar bandligini ta`minlash hamda ularning ijodiy salohiyatini ro`yobga chiqarish yo`lida birgalikda amaliy ishlarni bajarishga kelishib oldilar.